



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Mazkur chizmada berilgan oqibatlar kengroq tahlil qilinadi. Bunda o'quvchi (talaba)larning mustaqil fikrlari so'ralib, umumlashtiriladi.

Mashhur pedagog Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaydiki: "Ta'lism kechimida asosiy e'tibor o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlargagina emas, balki bolalarning tashabbuskorligi, ijodkorligi, mustaqil fikri, tanqidiy yondashuvini tarkib topdirishga qaratilib, ularni o'zini o'zi o'qitadigan, kerak bo'lgan har qanday axborotni izlab topa biladigan va u bilan maqsadga muvofiq yo'sinda ishlay oladigan qilib shakllantirishga qaratilishi kerak [4. 299]. Boshqa bir taniqli pedagog-olima Qunduz Husanboyeva yozadiki: "O'quvchini borliq hodisalariga yondashishga o'rgatishda ularning ichki qiziqishlarini uyg'otish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi" [5. 404].

Xulosa qilib aytganda, tarixiy romanlardagi fitnalarni aniqlash o'quvchining tarix haqiqatlarini to'laqonli tushunishga, uni idrok etishga undaydi; fikrlash darajasini o'stirish orqali ijtimoiy munosabatlarga qiyinchiliksiz kirishuvini ta'minlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi, – Toshkent: Yangi asr avlod, 2010, 202-bet.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi, – Т., 2018.
3. Зуннунов А., Хотамов Н. ва бошқалар. Адабиёт ўқитиши методикаси, – Т., 1992.
4. Қозоқбай Йўлдош. Жиловланмаган тафаккур маҳсули Т.: Тафаккур, 2024. – 628 б.
5. Husanboyeva Q., Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lism, – Т., 2022. - 404 b.
6. <https://uz.wikipedia.org>
7. www.deutschland.de
8. <https://www.unesco.org>

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/UMZB8027

ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI

To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ona
tili va adabiyoti ta'limi fakulteti, 1-bosqich doktoranti
+99891 (016-07-96) tuganovadinara82@gmail.com*

ORCID: 0009-0000-5914-6571

UO'K: 820:371.3

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida interaktiv o'qitish modelining ahamiyati, dars jarayonida samarali qo'llash usullari va amaliy natijalari haqida fikr yuritiladi. Interaktiv, interaktiv va ekstroaktiv o'qitish modellarining farqlari ochib beriladi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada bugungi kundagi adabiyot darslarida hikoyalarni zamonaviy yondashuvlar orqali tahlil qilish xususida so'z yuritiladi. Multisensorli o'qitish usuli yordamida Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasining tahlil jarayoni ko'rib chiqish



maqsad qilingan. Adabiyot o'qitishning zamonaviy, innovatsion metodlari ishlab chiqilib, bugungi kundagi ta'lif jarayoniga tadbiq qilish choralar ko'rilsin. O'quvchilar qiziqishlarini inobatga olgan holda, badiiy asar mutolaasiga qiziqtirish, adabiy-nazariy tushunchalar, o'z bilim va hayotiy tajribalariga suyangan holda asarni tahlil qila olish borasida fikrlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Interaktiv, aqliy hujum, insert, sinkveyn, Vark modeli, multisensor, arual, kinestetik, "Hayotga muhabbat".

Аннотация: В данной статье рассматривается значение интерактивной модели обучения на уроках литературы, методы её эффективного применения в учебном процессе и практические результаты. Раскрываются различия между интерактивным, интерактивным и экстрактивным моделями обучения. С этой точки зрения в статье обсуждается анализ литературных рассказов с применением современных подходов в сегодняшних уроках литературы. Целью является рассмотрение процесса анализа рассказа Джека Лондона «Любовь к жизни» с использованием мультимодального (мультисенсорного) метода обучения. Разрабатываются современные, инновационные методы преподавания литературы и принимаются меры по их внедрению в современный образовательный процесс. С учетом интересов учащихся рассматриваются способы повышения интереса к чтению художественной литературы, а также возможности анализа произведений, опираясь на литературно-теоретические понятия, собственные знания и жизненный опыт.

Ключевые слова: Интерактив, мозговой штурм, insert, синквейн, модель VARK, мультисенсорный, аудиал, кинестетик, «Любовь к жизни».

Abstract: This article discusses the importance of using interactive teaching models in literature classes, effective application methods during lessons, and practical outcomes. It highlights the differences between interactive and extractive teaching models. From this perspective, the article analyses how today's literature lessons can interpret stories through modern approaches. Using the multisensory teaching methods, the analysis process of Jack London's story "Love of Life" is reviewed. Measures to apply these methods in today's educational process are discussed. The students' interest in analysis, understanding of literary theory, and ability to analyse artistic texts based on their knowledge and life experiences are also reflected upon.

Key words: Interactivemental attack, insert, sinkvein, Vark model, multisensory, aural, kinaesthetic, "Love of life".

Kirish

Globallashuv davrida maktab ta'lif tizimiga interaktiv o'qitishning joriy qilinishi zamon talabi bo'lmoqda. Shu o'rinda adabiyot predmetini zamonaviy usullar yordamida o'quvchilarga taqdim qilish, ularning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini, mustaqil fikrlashiga va badiiy asarlarni chuqurroq va osonroq o'rganishlariga imkon beradi. An'anaviy dars usullaridan farqli o'laroq, interaktiv yondashuv o'quv jarayonini qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlaydi, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarini mustahkamlab, ular o'rtasida bahsmunozaralarni rivojlantirishga yordam beradi. Milliy metodikada jahon adabiyoti namunalarini o'qitishning nazariy-metodik jihatlariga E.Abduvalitov, M.Abdullahayeva va D.Jumaboyeva, N.Abduvalitovlar tomonidan olib borilgan izlanishlarni muayyan darajada e'tibor qaratilganligi kuzatiladi. Adabiy ta'lif taraqqiyoti yo'lida Omonulla Madayev, Marg'uba Mirqosimova, Qozoqboy Yo'ldoshev, Safo Matchonov, Boqijon To'xliyev, Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyazmetova va yana ko'plab ustozlarimiz adabiyot o'qitish metodikasining



ayrim masalalariga yangicha yondashuvlarni joriy qilish bo'yicha o'z ko'rsatmalarini berib o'tganlar.

Uzluksiz ta'lif bosqichlarida jahon adabiyoti namunalarini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari MDH olimlaridan L.Filatova tomonidan o'rganilgan. Umumta'lif maktablarida jahon adabiyotini o'rganish muammosi xorijlik Eva Mlcakova, Xie Miya Qiong, C. E.Fruit Diouf, M. M. Elkordy kabi olimlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili umumiyligini o'rta ta'lif tizimida jahon adabiyotini o'qitish masalasi nazariy va amaliy jihatdan umumiyligini etilganligini ko'rsatadi. Shuni nazarda tutib, mazkur maqolada adabiy ta'lifda ingliz adabiyoti namoyandalari ijodini o'rganish va o'qitish metodikasini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Asosiy qism

Mustaqillik yillaridan keyin adabiyot o'qitishda ham boshqa sohalar singari tubdan yangilanish zarurati paydo bo'ldi. Bu mashaqqatli va sharafli vazifalarni bir qancha olim va olimalarimiz o'z ilmiy izlanishlari natijasida metodik qo'llanmalar yaratib kelmoqdalar. Birinchilardan bo'lib Qozoqboy Yo'ldoshevning "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" o'quv qo'llanmasi dastlabki qadamlardan biri bo'ldi. Yaqin yillarda yozilgan va Oliy o'quv yurtlarida dasturulamal bo'lib xizmat qilayotgan Qunduzxon Husanboyeva va Roza Niyazmetovalarning hammuallifligida yozilgan "Adabiyot o'qitish metodikasi" adabiy ta'limga tegishli bo'lgan muhim jihatlarni qamrab olgan o'quv qo'llanma deyish mumkin. Bugungi o'quvchilar dunyoqarashi, fikrlashi, voqelikka munosbati kechagidan tubdan farq qiladi. Endilikda ular hokim qarashlar, turli stereotiplar, ma'lumotlarni o'qib shunchaki og'zaki bayon qilish bilan murosa qilolmaydi. Bugungi yoshlarga zamonaviy tilda suhbatlashib, jahon andozalariga mos kela oladigan metodlar bilan dars o'tilsagina, ko'zlangan natijaga erishish mumkin. O'rta ta'lifning asosiy vazifasi yoshlarda mustaqil fikrlash va tahlil qila olish ko'nikmalarini hosil qilib, rivojlantirishdan iborat. Ingliz metodist olimlari Elli Chambers va Marshall Gregorining ta'kidlashicha, bugun adabiyot o'qitish, badiiy asarni o'rganish endi avvalgidek "Buni to'g'ri deb qabul qil" (to get it right) tamoyili mezonlariga to'g'ri kelmaydi: o'quvchi badiiy asar haqidagi talqinlarini o'z dunyoqarashi, fikrlashi, tafakkur darajasiga ko'ra rivojlantira olish imkoniga egadir [4:239]. Maktab darsliklaridan o'rin olgan asar haqidagi tahlilar va murabbiylar tomonidan berilgan xulosalar asar haqida atroflicha tahlil qilish imkon bermagan. Ammo, bugungi kundagi ilmiy izlanishlar, metodik qo'llanmalar va yangicha ruhda yozilgan adabiyotlar bu usuldan voz kechmoqda. Bu turdagiligi adabiyotlar orqali dars jarayonlari ham jonli muhitga ko'chadi. Ijodkor hayoti, uning ijod mahsuli va shu asar :rasida berilgan interaktiv topshiriqlar bugungi fan taraqqiyotining ko'zgusidir.

Pedagogika ilmi o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishdagi ishtirokiga ko'ra o'qitish kechimini tashkil etishning uch turi mavjudligini ko'rsatadi. Ekstroaktiv usul - (extra - tashqi) axborotlar oqimi ta'lif oluvchilardan tashqarida bo'lib, ularga yo'naltiriladi. O'quvchi tom ma'noda "o'quvchi" maqomida bo'ladi va tashqaridan yuborilayotgan axborotlarni qabul qilish



bilangina shug'ullanadi. Bu usul an'anaviy yo'sindagi o'qish uchun xarakterlidir. Negaki unda o'quvchi emas, balki o'qitish tizimi faollik ko'rsatadi.

Interaktiv usul – (inter – o'zaro, birgalikda) bunda axborotlar oqimini vujudga keltirish ham yo'naltirish ham va o'zlashtirish ham barcha qatnashchilarning birgalikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bu usulda o'quvchi o'quvchi bilan, bir o'quvchilar guruhi boshqa guruh bilan, bularning har biri alohida yoki birgalikda o'qituvchi bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Mana shu munosabatlar kechimida axborotlar o'zlashtiriladi.

Introaktiv usul – (intro – ichki) axborotlar oqimi o'zlashtirish, asosan, o'quvchilar ichida sodir bo'ladi va natija tashqariga yo'naltiriladi. Bu usul o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatlariga xosdir. O'quvchilar uyda uy vazifasini, sinfda nazorat ishlari hamda turli didaktik topshiriqlarni mustaqil bajarayotganlarida ta'limning introaktiv usuli yuzaga kelgan bo'ladi [5:408]. Qozoqboy Yo'ldoshev va Muhayyo Yo'ldoshlarning ilmiy izlanishlari xulosalariga ko'ra ham interaktiv usulda dars mashg'ulotlarining olib borilishi, an'anaviy darslardan qiziqarli ekanligini isbotlaydi. Negaki, axborotlar oqimi faqat tashqi tomondan qabul qilinaversa, o'quvchi tabiatida izlanish, mustaqil o'rganish kabi xislatlar yo'qolib boraveradi. Yangiliklarni qabul qiluvchi maqomiga tushib qoladi. Bugungi kunda esa yangi bilimlarni mustaqil egallovchi kadrlarga bo'lgan talab yuqori. Dars jarayonida ham o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirshi, tahlil qilishi va baholashi zamon talabi asosida olib borilsagina darslardan kutilgan natijaga erishish mumkin. Necha asrlardan buyon qo'llanib kelingan va natijaga erishilgan an'anaviy metod bugungi kunda o'zini oqlamayotir. Sababi, sinfdagi 30 ta o'quvchilarning bilim olish qobiliyati turlicha va individual harakterga ega. Qirq besh daqiqa ichida o'qituvchi darsdan kutilgan xulosaga kelish uchun ham, o'quvchilarning xohishlarini inobatga olinishi talab etiladi. Bu borada N. Fleming VARK modeliga ko'ra olimlar o'rganuvchilarning 7 xil turini ajratishgan.

a) Vizual o'rganish uslubi.

b) Eshitish (aural) orqali o'rganish uslubi.

c) Kinestetik (jismoniy) o'rganish uslubi. Bunday o'rganuvchilar o'rganilgan mavzuni nazariy emas, o'zlari amalda sinab ko'rib eslab qoladilar va talqin etadilar.

d) O'g'zaki yoki o'qish- yozish (lingvistik) orqali o'rganish.

e) Mantiqiy (logikaviy) o'rganish uslubi. Matnni tushunish uchun o'z- o'ziga va o'qituvchiga tez-tez savol bilan murojaat etishadi.

f) Ijtimoiy (Sotsial) o'rganish uslubi. Ular mustaqil ravishda emas, balki guruhda o'rganganlarida yaxshiroq natijaga erishadilar. Bunday o'quvchilarga turli xil debatlar, muhokamalar, savol- javoblar tarzida o'tilgan darslar yaxshi ta'sir o'tkazadi.

g) Yakka holda o'rganish uslubi. [7:3]

<https://inscience.uz/index.php/socinov/index>

Ushbu taqdim etilgan o'rganish uslublarini bir dars davomida amalgashirishni imkoniy yo'q, albatta. Ammo, berilgan badiiy asarlarni qo'shimcha to'g'arak darslarida, sinfdan tashqari ishlarda qo'llash ijobiy samara beradi. Biz



tahlilga tortayotgan “Hayotga muhabbat” asarida inson umri, hayot hodisalari rivojlanishda kechadi. Yo’lovchining xarakter xususiyatlari voqealar ta’sirida tadrijiy ravishda rivojlanib boraveradi. Gohida kitobxon va muallif o’rtasida diologik nutq ham paydo bo’ladi. Bu o’rinda S.Matchonov aytganlaridek, “Aslida kitobxon ham yozuvchi singari ijodkor. U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo’lidan boradi. Yozuvchi ijodining murakkabligi shundaki, u xayolida tug’ilgan g’oyani adabiy qahramonlarning xatti-harakati, kurashlari misolida konkretlashtirsa, kitobxon unga teskari – adabiy qahramon xatti-harakati, kurashlarini tasviridan umumiy xulosalar chiqarish yo’lini tutadi” [9: 590]. Asarni vizual uslubda o’rganish kitobxonda hikoyada tasvirlangan histuyg’ular, janglar, qahramon ichki holatini tasvirlar orqali jonli ko’rish imkoniyatini beradi. Buning uchun o’quvchilarga hikoya syujetini ochib beruvchi maxsus ishlangan kartinalar va hujjatli filmlar taqdim etiladi. Ularga asarni qiyoslab o’rganishga :r savol-topshiriqlar beriladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, so’nggi yillarda interaktiv usullarning samaradorligi bir qancha olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Qozoqboy Yo’ldoshev va Usmonova o’z tadqiqotlarida “Aqliy hujum” usulining o’quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlashgan. M. Qodirovning izlanishlarida “Klaster” usulining o’quvchilar nutqini boyitishdagi ro’li bayon qilingan. [8:4] <http://web-jurnal.ru/>. Tadqiqotlardan shuni ko’rish mumkinki, interaktiv ta’lim usulining taraqqiyoti ko’pgina olimlar tomonidan o’rganilmoqda. Interaktiv uslublarning turli xilligi va o’quvchilarning bilim olish qobiliyati individualligi hisobga olinsa, dars jarayonida hammasini birdek qo’llash imkoniyati mavjud emas. Amerikalik psixolog va pedagog olim, ta’limga “mezonlarga asoslangan ta’lim” (criterion-referenced instruction) yondashuvini olib kirganlardan biri Robert Meyjerning ta’kidlashicha, dars oldiga qo’yilgan vazifa quyidagi uch komponentdan iborat:

- O’quvchi dars oxirida nimani bajara olishi- bunda dars oxirida o’quvchi bajara oladigan, o’qituvchi esa kuzatib, baho bera oladigan konkret xatti-harakatlar nazarda tutiladi;
- O’quvchi bu narsani qanday sharoitda bajara olishi;
- O’quvchi bu narsani muvaffaqiyatli bajargan yoki bajarmagani qanday mezonlar asosida baholanishi [4:218]

O’quvchilar motivatsiyasiga va adabiyot darslarining samarasiga ta’sir qiluvchi muhim faktorlardan biri, albatta, darslarni to’g’ri rejalaشتirishdir. Darsni ko’ngildagidek olib borishda murabbiylar quyidagi faktorlarni aniqlab olishlari zarur:

- Adabiyot fani va o’qilayotgan badiiy asar oldiga qo’yilgan vazifa;
- Darsda foydalilanligan metodlar;
- O’quvchilarning tushunishini tekshirish strategiyalari.

Qirq besh daqiqalik dars davomida o’qituvchi o’quvchilar imkoniyatlaridan kelib chiqib dars o’tsagina, kutilgan natijaga erishishlari mumkin. Ta’limiy vazifalar, o’qitish metodlari va baholash usullari o’rtasidagi bog’liqlikni ta’minlash ta’lim jarayonining muhim shartlaridan biridir. Barcha uslublarni o’z



ichiga jamlagan "Multisensorli ta'lif uslubi" ni adabiyot mashg'ulotlariga olib kirish o'quvchilar bilan ularning xohishlariga ko'ra individual ishslash imkoniyatini beradi. Maktab darsligidan joy olgan jahon adabiyoti, mumtoz adabiyot namunalarini tahlilga tortish jarayonida ushbu uslub kutilgan samara beradi. Jek Londonning "Hayotga muhabbat", Shekspirning "Hamlet", Navoiyning "Mehr va Suhayl" asarlari shular jumlasidandir. Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hioyasini 45 daqiqalik dars davomida "Multisensorli ta'lif uslubi" ning 4 xil ko'rinishida olib borish mumkin.

1. Ko'rish (vizual) uslub: Asardagi voqealari hodisalar, tabiat tasvirlarini ifodalovchi videolar yoki slaydlar yordamida o'quvchilarning tasavvurini kengaytirish. Vizual usul hikoyadagi tasvirlangan muhitni jonli ko'rishga imkon beradi.

2. Eshitish (audial) uslub: Hikoyaning audio matnini tinglash yoki asar muhitiga mos keluvchi tovush effektlarini eshitish orqali o'quvchilarning bu qobiliyati rivojlanadi.

3. Jismoniy (kinestetik) uslub: O'quvchilar o'zlari ta'sirlangan voqealarni sahnalashtirish orqali darslarda faol ishtiroy etishlari mumkin.

4. Hissiy (taktik) uslub: Tasvirlangan obyektlarning namunalarini o'quvchilarga taqdim etish. Masalan, o'simliklar, muz bo'lagi, sovuq suv, gugurt va hakozo.

Quyida keltirilgan uslublar orqali dars berilganda o'quvchilar hikoyaning mazmunini turli xil hissiy kanallar yordamida o'rganish imkoniyati vujudga keladi. Asarni film yoki teatr sahnasida tomosha qilishda vizual, audial va taktik usullarni jamlagan holda o'rganish mumkin. Eng muhim jihatni dars davomida barcha o'quvchilarni qamrab oladi. Berilayotgan har qanday topshiriq shaxs shakllanishiga o'z hissasini qo'shishi kerak. Qozoqboy Yo'ldoshev aytganlaridek, "Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek, ilg'or pedagogik fikrlar taraqqiy topgan yurtlarda pedagogika fani va amaliyoti oldiga endilikda mutlaqo o'zgacha maqsad qo'yilmoqda. Bugungi ilg'or pedagogikaning e'tibori mutaxassis tayyorlashdan shaxs shakllantirishga ko'chgan. Yangicha pedagogika o'z oldiga o'zi vazifa qo'ya oladigan, biror qarorga kelishda birovning og'ziga qarab turmaydigan, o'zini o'zi rivojlantiradigan, o'z faoliyatini o'zi nazorat qila oladigan yorqin shaxslik xususiyatlarini shakllantirish masalasi bilan shug'ullanadi [6: 27, 28]

Dars davomida guruh bo'lib ishlashni istovchi o'quvchilar uchun jamoaviy savollar tayyorlash va ularni muhokamaga qo'yish ham muhim.

- 3) Guruh. Billni oqlashadi.
- 4) Guruh. Billni qoralaydi.
- 5) Guruh. Bill o'zini himoya qiladi.

6) Guruh. Xulosalovchi ya'ni Billga hukm chiqaradi. Bu holat boshqa qahramon va voqealarda qo'llash yaxshi samara beradi.

Multisensorli o'qitish uslubini vizual shaklini darsda qo'llashda asar bilan kino o'rtasidagi voqealar taqqoslash orqali tahlil qilish ijobiy samara beradi. Amerikalik rassom Ernest Blumenschein tomonidan asarga ishlangan kartinalar



dars jarayonida o'quv qurollari vazifasini bajaradi. Asarning ingliz tilidagi kino variantini tomosha qilish va tarjima jarayonida qanday o'zgarishlarga duch kelinganini aniqlash. "Love in life" You tube platformasida. Havola: <https://youtu.be/sHTDt y82hQ>

Bu turdag'i tahlil jarayoni uzoq vaqt ni talab qilishi tabiiy hol. Ammo bir asarni to'g'ri, erkin va mustaqil fikr bilan analiz qilishda yordam beradi va keying asarlar tahlili uchun mustahkam fundament vazifasini bajaradi. Kino va asar o'rtasidagi bir-biriga o'xshash va qarama-qarshiliklar o'quvchilar tomonidan aniqlanadi.

– Filmdagi qahramonlar ichki olami va tashqi qiyofasi hikoyadagidek ta'sir qildimi?

– "Yozuvchi- rejissor- aktyor- kitobxon" to'rtligiga ta'rif bering

– "Asarni o'qish orqali tomosha qilish, filmni tomosha qilish orqali o'qish" kuzatildimi?

Dars jarayonini to'g'ri tashkil etish orqali o'qituvchilar multisensorli o'qitish uslubi o'quvchilarning qaysi kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilganini va qay tarzda ularning faolligini ta'minlashini bilib olishlari mumkin. Dars so'ngida o'quvchilar darsda nimani o'rganganlari va nima uchun o'rganganlarini aytib o'tishlari kerak. Shu bilan birga darsda o'rganilgan materiallar keying bosqichlardagi materiallar bilan bog'lansa, o'quvchilarda qiziqish kuchayadi va fanda mavzular orasidagi bog'liqlikni ko'rish imkonini beradi.

Xulosa

Adabiyot o'qitish metodikasi ham boshqa sohalar singari o'zgaruvchan, rivojlanish xususiyatiga ega. Yillar davomida qo'llanilib kelingan va kutilgan natijalarga erilshilgan an'anaviy o'qitish usuli hozirgi kunda o'zini oqlamayapti. Gadjetlar, raqamli hayotda yashayotgan yoshlarga zamonaviy qurollar yordamida dars berilsagina ularni shu fanga, badiiy asarlarga olib kirish mumkin. Yangi tartibda yozilayotgan darsliklarni shunchaki an'anaviy usul bilan o'quvchilarga o'rgatish muallifga bo'lgan hurmatsizlik deyish mumkin. Metodika sohasida yaratilayotgan tadqiqotlar natijalari amaliyatga izchil tadbiq etilishi xalqaro srankartlarga mos rivojlanishda yordam beradi. Mavjud yangilanishlar adabiy ta'limning faqat ichki imkoniyatlari bilan cheklanmasdan, yondashuvlarning qiyosiy tahliliga tortilishi, adabiy ta'lim muammolarini ilg'or xorijiy tajribalar bilan hamkorlikda hal etilishi ta'lim jarayonining muhim muammo si sanaladi. Adabiyot darslarida jahon adabiyoti namunalarini o'rganishda ta'limning turli metodlaridan foydalanish, ularni o'quvchilar imkoniyatlaridan kelib chiqib dars jarayoniga tadbiq qilish ustuvor masala sanaladi. To'g'ri tanlangan metod ularning aqliy faoliyatini rivojlantirishga, o'quv materiali mazmunini erkin tahlil qila olish, ilmiy- mantiqiy asosini o'rganish ko'nikmasini shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduvalitov E.B. Umumiy o'rta ta'lim mакtablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o'rganish. Ped.fan.dok. (DSc)...diss. – Toshkent, 2020. – 252 b.



2. Abdullayeva M., Djumabayeva D. Jahon adabiyotini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish (9-sinf adabiyoti darsligi "Jahon adabiyoti" bo'limi misolida). Metodik qo'llanma. – Toshkent: 2019. – 180b.
3. Abduvalitov N. Umumi o'rta ta'lim maktablarida jahon adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan.dok. (PhD) diss. – Toshkent: 2021. – 166b.
4. Mirzayeva Z, Jalilov K. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Toshkent: Academic space, 2024. – 295b.
5. Yo'ldoshev Q, Yo'ldosh M. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 408b.
6. Yo'ldashev Q "Jilovlanmagan tafakkur mahsuli". Toshkent: "Tafakkur", 2023. – 27-28 betlar.
7. Ruzimurodova F, Mirzayeva M, Ruzimurodova Z, Erkinov S. 2021. Implementation of multisensory schools (on the example of Alisher Navoi's work "Mehr and Suhayl". Jamiyat va innovatsiyalar – <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
8. Umurova F. Adabiyot darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishning interfaol usullari. <http://web-journal.ru/>.
9. Matjan, S.1996. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. Toshkent: O'qituvchi.
10. Yo'ldoshev Q. 1996. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: O'qituvchi.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/ZHBO2166

UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH

Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

mustaqil izlanuvchisi

marjona.alfraganus@gmail.com

ORCID:0009-0000-6062-8092

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining eng yuksak namunasi — "Xamsa" dostonlarini umumta'lism bosqichlarida tizimli va samarali o'qitishning nazariy va amaliy asoslari keng tahlil etilgan. Jumladan, o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir dostonni bosqichma-bosqich o'rganish modeli, zamonaviy metodik yondashuvlar, darsda interaktiv va integratsion metodlardan foydalanish yo'llari, badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslاب berilgan. Maqolada shuningdek, "Xamsa"dagi qahramonlar timsolida axloqiy fazilatlar, milliy qadriyatlar, gender tengligi, tarixiy ong va madaniy merosga hurmat kabi tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi dars texnologiyalari misollar asosida ko'rsatib o'tilgan. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlardagi tarbiyaviy, falsafiy va psixologik qatlamlar o'quvchilarda shaxsiy kamolot, tanqidiy fikrlash va o'zlikni anglashni rivojlantirish vositasi sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xamsa, Navoiy, umumta'lism, badiiy tafakkur, tarbiya, gender yondashuvi, integratsiya, estetik tarbiya.

Аннотация. В настоящей статье подробно анализируются теоретические и практические аспекты преподавания «Хамсы» Алишера Навои на всех ступенях общего образования. Автор рассматривает модели поэтапного изучения поэм с учетом возрастных и психологических особенностей учащихся, предлагает современные методические подходы, а также пути применения интерактивных и интеграционных



| | |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i> | 881 |
| <i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i> | 887 |
| <i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i> | 893 |
| <i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i> | 898 |
| <i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATİSH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i> | 903 |
| <i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i> | 908 |
| <i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i> | 916 |
| <i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i> | 920 |
| <i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i> | 925 |
| <i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i> | 930 |
| <i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i> | 935 |
| <i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i> | 942 |
| <i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i> | 950 |
| <i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i> | 953 |
| <i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i> | 958 |
| <i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i> | 964 |
| <i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i> | 968 |
| <i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i> | 972 |

